

**Qadimiy yumshoq bug‘doy navlarining don sifat ko‘rsatkichlarini
qiyosiy tahlili (Xorazm viloyati sharoitida)**

**Z.B. Alloberganova - Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat
universiteti Biologiya kafedrasida dotsenti, b.f.n.,**

**Z.B. Isayeva - Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat
universiteti Biologiya mutaxassisligi magistranti,**

**V.B. Nurullayeva - Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat
universiteti Biologiya kafedrasida laboranti.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyati sharoitida ekilayotgan qadimiy yumshoq bug‘doy navlarining tur tarkibi va nonboplik xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilgan. Qizil bug‘doy, Oq bug‘doy 1, Oq bug‘doy 2 va Qayroqtosh navlarining don sifat ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: yumshoq bug‘doy, kleykovina, yalong‘och donli, Qayroqtosh navi, biometrik o‘lchash, global isish.

Аннотация: Приведены сведения о видовом составе и хлебопекарной части возделываемых сортов пшеницы Хорезмской области. Описан сравнительный анализ показателей качества зерна пшеницы красной, пшеницы белой 1, пшеницы белой 2 и сортов Кайракташ.

Ключевые слова: новая пшеница, клейковина, цельное зерно, сорт Хайракташ, биометрические измерения, глобальное потепление.

Abstract: This article provides information on the species composition and bread-making features of ancient soft wheat varieties cultivated in the conditions of the Khorezm region. A comparative analysis of grain quality indicators of the Qizil bug‘doy, Oq bug‘doy 1, Oq bug‘doy 2 and Qayroqtosh varieties is described.

Keywords: soft wheat, gluten, bare-grained, Qayroqtosh variety, biometric measurement, global warming.

Kirish. Kuzgi yumshoq bug‘doy navlari qishloq xo‘jaligining asosiy don ekinlaridan biri bo‘lib, uning hosildorligi va sifat ko‘rsatkichlariga ekologik omillar katta ta’sir ko‘rsatadi. Iqlim sharoiti, tuproq unumdorligi, sug‘orish rejimi va agrotexnik tadbirlar kuzgi bug‘doyning o‘sish va rivojlanish jarayonlariga bevosita ta’sir qiladi. Yuqori harorat, tuproq sho‘rlanishi, namlikning yetishmovchiligi kabi omillar dunyoning turli mintaqalarida kuzgi bug‘doy yetishtirishni cheklaydigan omillar hisoblanadi. Ayniqsa, keyingi yillarda kuzatilayotgan global isish Respublikamiz, jumladan, Xorazm viloyati sharoitida o‘simliklarga ayniqsa kuzgi bug‘doy hosildorligiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Viloyat iqlimi keskin

kontinental bo'lib, yoz oylarida juda issiq, quruq va quyoshli kunlar ko'p kuzatiladi. Viloyatda kuzgi bug'doy yetishtirishning qiyinchiliklaridan biri yuqori haroratning o'simlikning o'sish va rivojlanish bosqichlariga salbiy ta'siridir.

Ayniqsa, kuzgi bug'doy bahorgi vegetatsiya davrining donning shakllanish (sut, mum, to'liq pishish) davrida haroratning 43-44°C dan ham oshib ketishi donning to'liq shakllanmay qolishi hamda boshqadagi donlarning puch bo'lib qolishi hosildorlikni pasayishiga olib kelmoqda. Aynan mana shu muammolarni yechimini izlab topish va bu borada ilmiy izlanishlarni olib borish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Material va metodlar. Tajriba ob'ekti sifatida yumshoq bug'doyning Qizil bug'doy, Oq bug'doy 1, Oq bug'doy 2, Qayroqtosh navlari tanlab olindi. Navlar 3-qaytariqda dala maydonchalarida o'rganildi, o'simliklar bo'yicha fenologik kuzatuvlar va hisoblash ishlari olib borildi. O'rganilayotgan dala tajribalari qabul qilingan ilmiy uslublar asosida o'tkazildi. Fenologik kuzatuvlar va biometrik o'lchash ishlarini olib borishda «Методы проведения полевых экспериментов» (УзПИТИ, 2007) qo'llanmasida ko'rsatilgan usullardan foydalanildi.

Natija va munozara. Jahon dehqonchiligida asosan yumshoq bug'doy yoki oddiy bug'doy (*Triticum aestivum*, *Triticum vulgare*) va [qattiq bug'doy](#) (*Triticum durum*) ekiladi. Xo'jalik xususiyatlariga qarab 2 guruhga ajratiladi. Bular haqiqiy yoki yalong'och donli bug'doylar va polbasimon yoki urug'i qobiqli bug'doylardir. Bu bug'doy namunalari orasida qadimiy yumshoq bug'doy navlari alohida o'rinni egallaydi. Qadimiy yumshoq bug'doy turlari va ular asosida yaratilgan navlar hosildorligi, nonbobligi, doni tarkibida oqsil miqdorining ko'pligi va boshqa sifat ko'rsatkichlari bilan muhim amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekistonda qadimiy yumshoq bug'doy navlaridan Kal bug'doy, Qizil bug'doy, Oq bug'doy 1, Oq bug'doy 2, Surxak, Qizil sharq, Qizil bug'doy (Boysuk), G'allakor navi, Grekum, Qayroqtosh va boshqa navlar ekiladi.

Qadimiy bug'doy turlari asosida yaratilgan Qizil bug'doy, Oq bug'doy 1, Oq bug'doy 2, Qayroqtosh navlari O'zbekistonning ko'pchilik viloyatlarida ekiladi. Xorazm viloyati sharoitida ham bu navlar ekilib tadqiqotlar olib borilmoqda. Bug'doyning nonbopligini belgilaydigan asosiy ko'rsatkichlar - don tarkibidagi oqsil va kleykovina miqdori uni yetishtirish sharoitiga, qo'llaniladigan agrotexnika usullariga, nav xususiyatlariga va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Tajribalarda bug'doy navlarini parvarishlash uchun vegetatsiya fazalari bo'yicha o'g'it me'yori N₁₈₀₋₂₀₀, P₁₀₀₋₁₂₀, K₈₀₋₁₀₀ kg/ga berib borildi. O'simliklarning rivojlanishi uchun sarflangan o'rtacha issiqlik miqdori 24-30 °C ni tashkil qildi. Sarflangan suv miqdori fazalar bo'yicha o'rtacha 4000-4500 m³ atrofida bo'ldi.

Qadimiy bug'doy navlarida don tarkibidagi oqsil miqdor ko'rsatkichi o'lchab chiqildi. Olingan natijalarga ko'ra, bug'doy navlarida oqsil miqdor ko'rsatkichi 14,2-16,6% gacha bo'lganligi kuzatildi. Tajribadagi navlardan Qizil bug'doyda 15,8%, Oq bug'doy 1 da 15,2% , Oq bug'doy 2 da 16,1% gacha, Qayroqtosh navida 16,6 % gacha oqsil miqdori borligi kuzatildi. Hozirgi kunda qadimiy navlarning yangi navlarini yaratishda seleksionerlar oldiga donining sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan, kuchli bug'doy talablariga javob beradigan yangi navlarni yaratish vazifalari qo'yilmoqda. Qadimiy navlarda don tarkibidagi kleykovina miqdori aniqlanganda 24,6-27,6% gacha bo'lganligi o'rganildi. Bunda Qayroqtosh navida 27,6%, Qizil bug'doyda 24,5%, Oq bug'doy 1 da 24,4%, Oq bug'doy 2 da 24,3% bo'lganligi kuzatildi.

1-jadval. Qadimiy bug'doy navlarining don sifat ko'rsatkichlari (2024-yil).

	Nav namunalarning nomi	1000 ta don vazni, gr	Don naturasi, gr/l	Oqsil miqdori, %	Kleykovina miqdori, %
1	Qizil bug'doy	31,8	631,6	15,8	24,5
2	Oq bug'doy 1	31,2	690,2	15,2	24,4
3	Oq bug'doy 2	30,8	700,9	16,1	24,3
4	Qayroqtosh	30,2	661,8	16,6	27,6

Xulosa. Tajriba natijalariga ko'ra, qadimiy bug'doy navlari donini umumiy oqsil va kleykovinasi o'rganilganda Qizil bug'doyda 15,8%, Oq bug'doy 1 da 15,2%, Oq bug'doy 2 da 16,1% gacha, Qayroqtosh navida 16,6 % gacha oqsil miqdori borligi hamda kleykovina miqdori navlar kesimida aniqlanganda 24,4-27,6% gacha bo'lganligi o'rganildi.

Kelajakda bu navlarni respublikaning shimoliy hududlari, jumladan, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida ekish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jo'rayev D.T., Xo'jamov N.N., Begmatov B.E., Suyunova G.B. "Qadimiy mahalliy yumshoq bug'doy navlari don tarkibidagi temir miqdorining don sifat

ko‘rsatkichlariga bog‘liqligi”. Integratsiyalashgan ta’lim va tadqiqotlar jurnali, 2023.

2. Raximov S.S., Satipov G.M. (2024, December). “The Effect of High Temperatures on the Growth and Development of Winter Wheat Varieties (Case Study: Khorezm Region)”. In “CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD” (Vol. 1, No. 11, pp. 138-141).

3. Tursunov S. “Dala ekinlari mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasi”. Darslik. Toshkent - 2013.